



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Чориева Хуршидабону Хуррам кизи ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ: ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР, ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА ВА ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШ.....	5
2. Ражабова Хулкар Тошмановна ПРОБЛЕМЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	14
3. Ruzinazarov Shuxrat Nuraliyevich RAQAMLI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALAR.....	22
4. Саидова Нигорахон Акмал кизи ПРАВОВАЯ КВАЛИФИКАЦИЯ ОПЕРАТОРОВ ОНЛАЙН-МАРКЕТПЛЕЙСОВ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ДОКТРИНАЛЬНЫХ МОДЕЛЕЙ.....	35
5. Шамшетов Шарафатдин Сарсенович ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЙ СТАТУС ЗАЕМЩИКОВ В МИКРОКРЕДИТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.....	46
6. Ibragimova Rayxon Shodmon qizi FUQAROLIK SUD ISH YURITUVIDA TARJIMON ISHTIROKINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	55
7. Adembayev Aralbay Kuralbayevich TRANSPORT VOSITALARI HARAКATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISHNI KVALIFIKATSIYA QILISH.....	62
8. Акбутаев Ойбек Бакирович ДАСТЛАБКИ ТЕРГОВ УМУМИЙ ШАРТЛАРИНИ ТАСНИФЛАШ МЕЗОНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.....	70
9. Лутфуллаева Мадинабону Жамшидхон кизи ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ГАРАНТИИ ПРАВ ПОДОЗРЕВАЕМОГО ПРИ ЗАДЕРЖАНИИ.....	79
10. Yadgarov Shohruh SHANXAY NAMKORLIK TASHKILOTI: XALQARO HUQUQ SUBYEKTLILIGI, HUQUQIY MAQOMI.....	86
11. Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o'g'li O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHNING AHVOLI, SOHADA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR.....	92
12. Primov Baxtiyor Olim o'g'li SUD TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH VA UNI OLDINI OLISH MASALALARI.....	103



Ruzinazarov Shuxrat Nuraliyevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi

kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori,


Turon Fanlar akademiyasi akademigi

ORCID: 0000-0001-8550-9276

E-mail: sh.ruzinazarov@mail.ru

RAQAMLI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALAR

For citation: Ruzinazarov Shukhrat Nuraliyevich. MODERN TRENDS IN THE LEGAL REGULATION OF DIGITAL ENTREPRENEURSHIP. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20377682>

ANNOTATSIYA

Maqolada raqamli tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari keng qamrovda tahlil etilgan. Muallif XXI asrda raqamli texnologiyalar iqtisodiyot va huquqiy munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatib beradi. Xususan, elektron tijorat, smart-shartnomalar, blokcheyn texnologiyalari, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar bilan bog'liq huquqiy masalalar chuqur yoritilgan. Tadqiqotda nafaqat milliy qonunchilikdagi yondashuvlar, balki xalqaro tajriba ham qiyosiy tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida Prezident farmon va qarorlari asosida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida olib borilayotgan islohotlar biznes muhitini modernizatsiya qilish, startaplarni qo'llab-quvvatlash, elektron xizmatlar va raqamli to'lovlarni huquqiy asosda mustahkamlashga qaratilgan. Shu bilan birga, maqolada tadbirkorlik subyektlarining raqamli huquqlari, ularning subyektiv vakolatlari va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalari alohida o'rin tutadi. Muallif, shuningdek, milliy qonunchilikda ayrim tushunchalar, jumladan "raqamli tadbirkorlik", "raqamli huquqlar" kabi kategoriyalarni aniq ta'riflash zaruriyatiga urg'u beradi. Xulosa sifatida, zamonaviy sharoitda raqamli tadbirkorlikni samarali rivojlantirish uchun huquqiy bazani takomillashtirish, xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish, startaplar uchun maxsus rejimlar joriy qilish va elektron platformalar faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish ustuvor vazifalardan biri ekani qayd etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli tadbirkorlik, elektron tijorat, smart-shartnoma, blokcheyn, sun'iy intellekt, raqamli huquqlar, startaplar, raqamli platformalar

Рузиназаров Шухрат Нуралиевич,

Профессор кафедры «Бизнес-право» Ташкентского государственного

юридического университета, доктор юридических наук,

Академик Академии наук «Турон»

ORCID: 0000-0001-8550-9276

E-mail: sh.ruzinazarov@mail.ru

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

АННОТАЦИЯ

В статье подробно рассмотрены современные тенденции правового регулирования цифрового предпринимательства. Автор подчёркивает, что в XXI веке цифровые технологии оказывают мощное влияние на экономику и право. В работе уделяется внимание ключевым вопросам, связанным с электронной коммерцией, смарт-контрактами, технологиями блокчейн, искусственным интеллектом и обработкой больших данных. Проведён сравнительный анализ национального и международного опыта регулирования. В Узбекистане реализуется стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030», направленная на модернизацию бизнес-среды, поддержку стартапов, развитие цифровых платформ и онлайн-услуг. Особо выделено значение нормативных актов Президента Республики Узбекистан, регулирующих цифровые услуги, интеграцию электронных платформ и внедрение инновационных технологий. В исследовании отмечается необходимость чёткого закрепления в национальном законодательстве понятий «цифровое предпринимательство» и «цифровые права», так как именно эти категории формируют фундамент новых правовых отношений. Автор делает вывод, что будущее предпринимательства связано с цифровизацией и требует совершенствования законодательства, гармонизации его с международными стандартами, создания благоприятных условий для венчурного финансирования и стартапов, а также правового обеспечения электронной торговли и смарт-контрактов. Таким образом, работа представляет собой важный вклад в теорию и практику регулирования цифровой экономики и предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: цифровое предпринимательство, электронная коммерция, смарт-контракт, блокчейн, искусственный интеллект, цифровые права, стартапы, цифровые платформы

Ruzinazarov Shukhrat Nuralievich,
 Professor of the Department of Business Law
 of Tashkent State University of Law,
 Doctor of Science in Law,
 Academician of the Turan Academy of Sciences
 ORCID: 0000-0001-8550-9276
 E-mail: sh.ruzinazarov@mail.ru

MODERN TRENDS IN THE LEGAL REGULATION OF DIGITAL ENTREPRENEURSHIP

ANNOTATION

The article provides a comprehensive analysis of modern trends in the legal regulation of digital entrepreneurship. The author emphasizes that in the 21st century, digital technologies have profoundly transformed both the economy and the legal framework of civil and business relations. Particular attention is devoted to the regulation of e-commerce, smart contracts, blockchain technologies, artificial intelligence, and big data. The research presents a comparative analysis of national approaches and international best practices. In Uzbekistan, the “Digital Uzbekistan – 2030” strategy, adopted by Presidential decrees and resolutions, plays a crucial role in modernizing the business environment, supporting startups, and legally securing digital payments and online services. The article highlights the significance of strengthening the legal framework for digital rights of business entities, the protection of personal data, and the need for precise legislative definitions of terms such as “digital entrepreneurship” and “digital rights.” Furthermore, the author argues that digital transformation requires not only innovative economic measures but also effective legal mechanisms to ensure cybersecurity, consumer protection, and fair competition in digital markets. The study concludes that the development of digital entrepreneurship in Uzbekistan should be accompanied by the improvement of legislation, alignment with international standards, and the establishment of favorable conditions for venture capital and startup ecosystems. By doing so, the

national economy will be better positioned to integrate into the global digital economy. The article thus makes a valuable contribution to the academic discourse and provides practical insights for policymakers and legal scholars in the field of digital law.

Keywords: digital entrepreneurship, e-commerce, smart contract, blockchain, artificial intelligence, digital rights, startups, digital platforms

Kirish

XXI asr axborot va raqamli texnologiyalar asridir. Raqamli texnologiyalar odamlarning kundalik hayotiga allaqachon mustahkam kirib borgan. Raqamli texnologiyalar, umuman, huquqshunoslikda, xususan, fuqarolik huquqi muomalasida yangi davrni yaratdi. Raqamli tadbirkorlik o‘zining tabiatiga ko‘ra huquqiy tartibga solishning nisbatan yangi obyektini hisoblanadi. Raqamli va kreativ iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini raqamlashtirishni huquqiy tartibga solish xususiy huquq doktrinasi sohasidagi fundamental zamonaviy institutlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda “raqamli biznes” real voqealikka aylandi. Iqtisodiyot, boshqaruv va huquqni raqamlashtirish ta’sirida davlat va huquq sohasida paydo bo‘lgan va ro‘y berayotgan yangi hodisa va jarayonlarning doktrinal rivojlanishikam o‘rganilgan ilmiy tadqiqot ishlarining istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli va kreativ iqtisodiyot bilan bog‘liq munosabatlar turli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq munosabatlarni maxsusunifikatsiyalashtirilgan va tizimlashtirilgan mazmundagi huquqiy tartibga solishga obyektiv ehtiyoj vujudga kelmoqda. Binobarin, bu boradagi qonunchilik tizimini zamonaviy global chaqiriq va talablarni hisobga olgan holda unifikatsiya qilish talab etiladi. Biroq, yuridik adabiyotlarda raqamli huquqqa oid tushuncha va kategoriyalarga mumtoz ta’riflari hali mukammal tarzda ishlab chiqilmagan. Bunga oid ayrim ta’riflar ham ko‘pincha umumiy an’anaviy ma’noda, masalan, “axborot texnologiyalari”, “axborot-kommunikatsiya texnologiyalari”, “axborot va kompyuter texnologiyalari” kabi talqin qilinadi. Ilmiy-nazariy tahlillar natijalari ko‘rsatishicha, biznesning raqamli transformatsiyasi tadbirkorlik haqidagi an’anaviy tushunchalarning mohiyatini o‘zgartirmoqda va raqamli makonda ham raqamli huquqiy vositalarni qo‘llash orqali bunday faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlari va afzalliklarini ko‘rsatmoqda desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalari tadbirkorlik subyektlariga deyarli hech qanday xududiy cheklolrsiz tovarlarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, sotish va jahon va mintaqaviy raqamli bozorlariga chiqish imkonini beradi. Davlatlar uchun bu huquqiy tizimlarni raqamli transformatsiya qilish, yagona raqamli infratuzilmani yaratish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Zamonaviy biznes amaliyotiga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi iqtisodiy taraqqiyot va jahon savdosining muhim omiliga aylangan elektron tijoratning paydo bo‘lishiga va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, raqamli biznesning tobora ommalashib borishi uni oqilona huquqiy tartibga solish va an’anaviy milliy qonunchilik normalarini takomillashtirish xamda ularni raqamli muhitda qo‘llash bilan bog‘liq yangi huquqiy muammolar keltirib chiqarmoqda. Raqamli biznesni qonunchilik bilan tartibga solish tadbirkorlik subyektlarning kibirxavfsizligini ta’minlash, raqamli tovar muomilasida iste’molchilar va tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish, raqamli makonda firibgarlikning oldini olish va elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish uchun g‘oyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, mamlakatimizda raqamli tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishning zamonaviy tendensiyalarini tadqiq etish ustivor yo‘nalishlaridan bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni milliy va xorijiy doktrinadan kelib chiqib uning istiqbolli yo‘nalishlariga asos solish fursati yetdi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Asosiy qism

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini, istiqbolini ta’minlaydigan kuch bu – tadbirkorlar. Davlatimizni boy qiladigan kuch bu – tadbirkorlar. Xalqimiz, oilalar hayotini farovon qiladigan kuch bu – tadbirkorlar”. Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan an’anaviy uchrashuvi nafaqat davlat siyosati balki tadbirkorlik davlat va jamiyat barqarorligini

ta'minlaydigan kuch sifatida g'oyatda muhim bo'lgan yangi va ustivor vazifalarni belgilab beradi. Davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladigan davlat va jamiyat ahamiyatiga molik jonli va samimiy muloqot juda katta ahamiyatga molikdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-avgustdagi PF-138-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmonining ahamiyati beqiyosdir. Zero, tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish doirasi va ko'lami juda keng. Binobarin, davlatimizda amalga oshirilgan jadal islohotlarning natijalari ko'rsatishicha, iqtisodiyotimizni rivojlantirish maqsadida salmoqli natijalarga erishildi. Tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy istiqbollari o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan bo'lib hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda "raqamli transformatsiya", "raqamlashtirish", "raqamli texnologiyalar", "raqamli qonun", "raqamli huquqlar" va boshqa tushunchalar keng qo'llanilmoqda. Biroq, qonun darajasida uning mukammal ta'rifi mavjud emas. Shuningdek, ushbu ta'rif ko'pincha "axborot texnologiyalari", "axborot-kommunikatsiya texnologiyalari", "axborot va kompyuter texnologiyalari" kabi tushunchalar tarzida umumiy ma'nolarda ham talqin qilinadi. Shuningdek, Internet – ashyo (IoT – Internet of Things), katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt (AI – Artificial Intelligence), aqlli shartnomalar (smart contracts), taqsimlangan hisoblash, blokcheyn texnologiyalari va boshqa bir qator yangi tushunchalar nafaqat xalqaro miqyosda balki milliy qonunchilikda uni qo'llash bilan bog'liq normajodkorlik faoliyatining istiqbollari belgilanmoqda. Strategik taraqqiyotning hozirgi davri turli huquqiy tizimdagi davlatlar uchun g'oyatda adolatli, oqilona manfaatli "Raqamli tartibga solishning tizimlashgan va birxillashtirilgan qoidalarning" mavjud bo'lishini ham taqozo etadi. Shu bois, tadbirkorlik sohasida elektron to'lov, elektron va mobil pul, elektron banking, to'lov bozorlarida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, katta ma'lumotlar asrida raqobat munosabatlari, blokcheyn, kriptovalyuta, smart-kontrakt, raqamli identifikatsiya i autentifikatsiya, konfidensiallik, elektron dalillar, elektron tijorat, Internet-savdo, raqamli savdo, elektron xizmat ko'rsatish, internet-platforma, raqamli tovarlar, smart-kontrakt, domen nomlari, ip-adres, patent huquqi, lisenziyalashtirish, muzokara va elektron shaklda shartnoma tuzish, dasturiy ta'minot, onlayn–servis, agregator, onlayn-arbitraj va onlayn-vositachilik va boshqalar bilan bog'liq masalalar bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish istiqbolli dastur va loyihalarni ro'yobga chiqarishning g'oyatda muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Darhaqiqat, jahon iqtisodiyoti, global biznes arxitekturasi kun sayin o'zgarib, oldimizga yangi-yangi vazifalarni qo'ymoqda. Mamlakatimizda kichik va o'rta biznes "islohotlar katalizatori"ga aylandi. Yurtimizda 300 mingga yaqin yakka tartibdagi tadbirkorlar, yana 5,5 million nafar o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyat yuritmoqda. Shu bois, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun 2030 yilgacha maxsus huquqiy rejim joriy etilganligi, albatta, o'z samarasini beradi. Endi bunday tadbirkorlar uchun ro'yxatdan o'tishdan tortib, hisobot topshirishgacha bo'lgan barcha xizmatlarni jamlagan raqamli platformalar yaratiladi. Bunda tadbirkorlar kerakli hujjatlarni masofaviy biometriya va SMS xabarnoma orqali elektron kalitsiz imzolashi mumkin. Ishchilarga elektron hamyon orqali "kunbay", "soatbay" maosh to'lash imkoniyati yaratiladi. Mamlakatimizda 40 dan ziyod elektron to'lov tashkilotlari mavjud bo'lib, aholimiz o'ziga qulay mobil ilovadan foydalanmoqda. Bu – naqdsiz to'lovni rag'batlantirish uchun eng yaxshi instrument bo'lib hisoblanadi. Uchrashuvda raqamli transformatsiya masalalariga e'tibor qaratilganligi bu boradagi ishlar ham davlat siyosatining ustivor jixatlari sirasiga kirishining yorqin dalolatidir. Shu maqsadda, fuqarolik va tadbirkorlik huquqi fani nuqtai nazaridan raqamli obyektlarning shu jumladan, raqamli texnologiyalar va platformalarning huquqiy rejimini va tadbirkorlik faoliyatida elektron to'lovlarni huquqiy tartibga solish mavzulari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish va raqamli huquqiy munosabatlarning ustivor huquqiy asoslarini yaratishni taqazo etmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 600 dan ziyod startaplar faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston ilk bor 2025-yilgi Global startap ekotizim indeksining 100 taligiga kirdi. Hisobotda 1400 ta shahar va

110 ta davlat innovatsion iqtisodiyot yetakchilari aniqlangan. O‘zbekiston 2025-yilda muhim marraga erishdi va birinchi marta global 100 ta eng yaxshi startap ekotizimlari qatoriga kirdi. Mamlakat rekord darajadagi o‘shir sur‘atlarini namoyish etib, Markaziy Osiyodagi eng tez rivojlanayotgan startap markaziga va jahon miqyosida asosiy g‘olibga aylandi. O‘zbekiston startap ekotizimining 2025-yildagi asosiy natijalari: O‘zbekiston birinchi marta jahon miqyosida 98-o‘rinni egallagan holda jahon 100 taligiga kirdi. Mamlakat ekotizimining o‘shir 132 foizdan oshdi, bu Markaziy Osiyoda eng yuqori va jahon miqyosida ikkinchi o‘rinda turadi. O‘zbekiston Osiyoda o‘z mavqeini yaxshiladi va 17-o‘ringa ko‘tarilib, mintaqada ketma-ket uchinchi yil o‘shir sur‘atini qayd etdi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda Qirg‘izistonni ortda qoldirib, ikkinchi o‘rinni egalladi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirar ekan va o‘zining jadal uchunchi Renessans taraqqiyot bosqichida axborot texnologiyalarini rivojlantirish, raqamli davlat va jamiyatni qurish, axborot va axborotlashtirish xavfsizligini ta‘minlash, eng muhimi, aqlli tartibga solish jarayoniga ham katta e‘tibor qaratib kelmoqda. A.A.Karsxiya aniq ta‘kidlashicha, raqamli texnologiyalarning ta‘siri raqamli obyektlar, raqamli texnologik platformalar, yangi turdagi raqamli xizmatlar, mulkiy fuqarolik muomalasi subyektlaridan foydalanish asosida zamonaviy fuqarolik-huquqiy tartibga solishni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlar bilan belgilanadi [1]. Biznesning raqamli transformatsiyasi tadbirkorlik haqidagi an‘anaviy tushunchalarni o‘zgartirdi. Axborot texnologiyalari kompaniyalarga deyarli hech qanday geografik cheklovlarisiz xizmatlar ishlab chiqarish, sotish va boshqarish va jahon bozorlariga chiqish imkonini beradi. Mamlakatlar uchun bu ularning huquqiy tizimlarini modernizatsiya qilish, yagona raqamli infratuzilmani yaratish va milliy qonunlarni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Zamonaviy biznes amaliyotiga elektron texnologiyalarning joriy etilishi iqtisodiy taraqqiyot va jahon savdosining muhim omiliga aylangan elektron tijoratning paydo bo‘lishiga olib keldi. Biroq elektron tijoratning tobora ommalashib borishi bilan uni tartibga solish bilan bog‘liq yangi huquqiy muammolar va muammolar paydo bo‘ladi. Raqamli biznesni huquqiy tartibga solish xavfsizlikni ta‘minlash, iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish, firibgarlikning oldini olish va onlayn tijoratni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish uchun muhim ahamiyatga ega. Raqamli tadbirkorlik faoliyati elektron aloqa va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan tijorat faoliyatining keng doirasini o‘z ichiga oladi. U nafaqat elektron tijoratni, balki biznesning boshqa jihatlarini, jumladan, onlayn-marketing, elektron moliyaviy operatsiyalar, axborot tizimlaridan foydalangan holda jarayonlarni boshqarish va internet va raqamli texnologiyalar yordamida raqamli huquqlarni amalga oshirish bilan bog‘liq boshqa faoliyatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Ilmiy-nazariy tahlil. Zamonaviy ilmiy manbalarda ta‘kidlanganidek, hozirgi raqamli asrda algoritm alohida ahamiyatga molikdir. Algoritm – bu zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning kerakli resursidir. Ayni damda “algoritm” tushunchasi inson va raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog‘liq: inson dastur ko‘rinishida algoritmni yaratadi, kompyuter esa hisoblash amallarini bajarish orqali algoritmlarni bajaradi. Shunday qilib, al-Xorazmiy algoritmi EHM va kompyuterlardan ancha oldin paydo bo‘lgan, biroq rivojlanish jarayoni davomida shakli saqlanib, mazmun jihatidan o‘zgarib borgan. Raqamli texnologiyalarning dastlabki ilmiy–metodologik gnoseologik negizlari zaminimizdan chiqqan va dunyo tamadduniga o‘zlarining olamshumul hissasini qo‘shgan buyuk mutaffakirlarning nomi bilan bevosita bog‘liq. Bu haqiqatni hozir butun dunyoda yaxshi bilishadi va e‘tirof etishadi. Bizning tadqiqotlarimiz natijasi ham ko‘rsatishicha, aynan raqamli huquq va algoritmlar uzviy bog‘liq kategoriyalardir. Raqamli huquq bevosita ajdodlarimiz yaratgan algoritmlardan oziqlanadi desak, aslo mubalog‘a bo‘lmaydi. Raqamli algoritmlar xaqida mushohada qilar ekanmiz algebraning asoschisini birinchi galda e‘tirof etishimiz lozim. Shu asnoda ushbu ilmiy maqolaning g‘oyatda muhim ilmiy qimmatini shu bilan izohlanadiki, unda ilk marotaba Al-Xorazmiy ilmiy merosidagi algoritm ta‘limoti tadbirkorlik faoliyatini raqamli transformatsiyalashuvining gnoseologik asosi bo‘lib xizmat qilayotganligini e‘tirof etish joiz. Raqamlashtirish sharoitida tadbirkorlikni (elektron biznes) transformatsiya qilish masalalari ochib berilgan, shuningdek, tadbirkorlik va raqamli texnologiyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir muammolarini o‘rgangan olimlar jumlasiga quyidagi mualliflarni e‘tirof etish mumkin: E.N. Abramova, A.P.Alekseyenko, I.A. Arenkov [2], S.N. Belova, V.A. Vaypan, G.R. Gromov [3], O.V. Kitova, V.I. Kiyayev, I.V. Kostyuk,

V.B. Kristanosov, T.A. Lezina, I.V. Nevzorov, D.A. Petrova, I.M.Rassolov[4], G.F. Ruchkina, V.V. Trofimov, E.G. Chernova, M.A.Eskindarov [5] va boshqalar shular jumlasidandir. Raqamli transformatsiya tadbirkorlik subyektlarining huquqiy maqomiga ta'sir ko'rsatdi. Raqamli transformatsiyaning ta'siri tadbirkorlik subyektlarining umumiy, maxsus va individual huquqiy maqomiga ta'sir ko'rsatadi, fuqarolik-huquqiy bitimlarida ishtirok etuvchi shaxslarga raqamli muhitdan foydalanish orqali fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va fuqarolik majburiyatlarini bajarish huquqini berdi. Yangi raqamli voqealikda fuqarolik huquqi subyektlarining huquqiy maqomi yangi raqamli (virtual) obyektlariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish, shuningdek, axborot (raqamli) texnologiyalardan foydalangan holda o'z vakolatlarini amalga oshirishga xaqli. Bunday subyektiv vakolatlarni amalga oshirish raqamli muhitda tadbirkorlik subyektlarini identifikatsiyalash va autentifikatsiya qilish bilan ham uzviy bog'liqdir. Tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan faol foydalanilayotganiga qaramay, bu boradagi qonunchilik tizimi huquqiy tartibga solishning zamonaviy ehtiyojlaridan orqada qolmoqda. Raqamlashtirish sharoitida sud amaliyotida manfaatlar to'qnashuvi va munozarali vaziyatlar ham yuzaga kelmoqda. O.V. Kitova raqamli biznes va raqamli iqtisodiyot masalalariga tizimli yondashdi. Uning ishlari axborot jamiyatida internet texnologiyalarini rivojlantirish, bulutli hisoblash, xizmatlar va mobil ilovalar, raqamli biznes va raqamli marketing, korporativ veb-saytlar va portallar, internet loyihalarini boshqarish, global tarmoq texnologiyalari asosida biznes reinjiningi, elektron to'lov tizimlari va raqamli biznes xavfsizligini o'rganadi [6]. Ko'plab olim va tadqiqotchilar – huquqshunolar va iqtisodchilar tomonidan huquq, tadbirkorlik va raqamlashtirishning rivojlanishi va o'zaro ta'siriga oid turli masalalar ko'tarilayotganiga qaramay, raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq nizolar bo'yicha nazariy-amaliy muammolar, shuningdek, huquqni qo'llash (sud) amaliyoti masalalarini hal etishga erishilmayapti. Shu munosabat bilan I. V. Nevzorov o'z tadqiqotida raqamli texnologiyalar va internetdan foydalangan holda tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish muammosini huquqiy tartibga solishga yagona yondashuvni o'rnatish va terminologiyadan foydalanishga rioya qilish orqali hal qilishni taklif qiladi, bu esa yagona sud amaliyotini yaratishga olib kelishi mumkin [7]. Biz ham ushbu muallifning fikrini qo'llab-quvvatlaymiz.

Ilmiy manbalarda to'g'ri e'tirof etilganidek, fuqarolik muomalasida raqamli texnologiyalar deganda maxsus raqamli signallar yordamida amalga oshiriladigan fuqarolik huquqi obyektlarini yaratish, qayta ishlash, holatini o'zgartirish, xususiyati, shakllarini raqamli (elektron) metodlar yig'indisi tushuniladi [8]. A.A. Karsxiya aniq ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalarning ta'siri raqamli obyektlar, raqamli texnologik platformalar, yangi turdagi raqamli xizmatlar, mulkiy fuqarolik muomalasi subyektlaridan foydalanish asosida zamonaviy fuqarolik-huquqiy tartibga solishni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlar bilan belgilanadi [9]. Shu maqsadda, raqamli reallik sharoitida sivilistik ilmiy tadqiqot ishlariga zamonaviy yondashuvlar xaqida konseptual va amaliy mulohazalarni bildirishning fursati yetdi. Ayniqsa, raqamli fuqarolik muomalasining transformatsiyalashuvi, iqtisodiyot sohalariga sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashni huquqiy ta'minlash, internet bilan bog'liq munosabatlarda raqamli (elektron) shaxsning huquq subyektiligi kabi bir qator raqamli huquqiy obyektlarni dasturlashtirish texnologiyalari ilmiy tadqiqot etish istiqbolli tadqiqot yo'nalishlaridan bo'lib hisoblanadi.

Raqamli huquqlar mazmuni va shartlari qonun hujjatlarida belgilangan mezonlarga javob beradigan axborot tizimining qoidalariga muvofiq belgilanadigan, qonun hujjatlarida raqamli huquqlar deb belgilangan majburiyat va boshqa huquqlar deb tan olinadi. Raqamli huquqni amalga oshirish, tasarruf etish va cheklash faqat axborot tizimida uchinchi shaxsga murojaat qilmasdan amalga oshirilishi mumkin. Raqamli huquq egasi, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, axborot tizimi qoidalariga muvofiq ushbu huquqni tasarruf etish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxs deb tan olinadi. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda raqamli huquqning egasi sifatida boshqa shaxslar tan olinishi mumkin. Tranzaksiya asosida raqamli huquq boshqa shaxsga o'tkazilganda, bunday raqamli huquq bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan shaxsning roziligi talab qilinmaydi. Eng avvalo shuni ta'kidlash joizki, raqamli huquq egalari bo'lib jismoniy yoki yuridik shaxslar shu jumladan, tadbirkorlik faoliyati subyektlari bo'lishi mumkin bo'lgan axborot texnologik tizimlari foydalanuvchilari va raqamli obyektlarning egalari bo'lib hisoblanadi.

Raqamli tadbirkorlik subyektlari axborot texnologiya tizimidan foydalanuvchi sifatida raqamli platformalarning ishlash qoidalari bilan tanishish va bitimlar tuzishda ularga rioya qilish; raqamli obyektlar bilan bog‘liq bitimlarni tuzishda qonunchilikka qat‘iy rioya qilishi lozim. Raqamli tadbirkorlik subyekti o‘ziga tegishli raqamli obyektga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega. Raqamli tadbirkorlik subyekti o‘z xohishiga ko‘ra o‘zining raqamli obyektiga nisbatan milliy qonun hujjatlariga yoki xalqaro shartnomalarga zid bo‘lmagan hamda boshqalarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmaydigan har qanday harakatlarni amalga oshirishga, shu jumladan raqamli obyektни boshqalarga begonalashtirishga, raqamli obyektдан foydalanish va uni tasarruf etish huquqlarini o‘tkazishga, shuningdek raqamli obyektни uchinchi shaxslar foydasiga cheklash va ularning milliy huquqlarini cheklash va boshqa shaxslar foydasiga yuklash huquqiga ega. Shuningdek, raqamli tadbirkorlik subyekti, agar milliy qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, raqamli obyektни saqlash, shu jumladan axborot texnologiya tizimida raqamli obyektни saqlash va majburiy to‘lovlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan xarajatlarni o‘z zimmasiga oladi. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining raqamli huquqlari eng avvalo, raqamli obyektlarda, jumladan, raqamli kontent, raqamli aktivlar, raqamli avatarlar va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa raqamli obyektlarda vujudga kelishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining raqamli huquqlari dastlab axborot kommunikasion texnologiyalar tizimida, shu jumladan, axborot tizimi doirasida tuzilgan shartnomalar va boshqa bitimlar asosida vujudga keladi. Ushbu o‘rinda ta‘kidlash joizki, raqamli obyektни sotib oluvchi uchun raqamli huquq eng avvalo, shartnoma, meros, yuridik shaxsni qayta tashkil etish yoki milliy fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa asoslarda vujudga keladi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining subyektiv raqamli huquqlari bir shaxsdan boshqa shaxsga, shu jumladan, axborot tizimi doirasida yoki undan tashqarida tuzilgan shartnoma bo‘yicha, meros, musodara, yuridik shaxsni qayta tashkil etish yo‘li bilan hamda fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo‘yicha, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, erkin o‘tkazilishi yoki begonalashtirilishi mumkin. Qonun hujjatlarida tadbirkorlik subyektlarining subyektiv raqamli huquqlarning o‘tkazilishiga ruxsat etilmagan yoki faqat ayrim shaxslarga tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan yoki ular bilan qonunchilikda belgilangan tartibda, shu jumladan, maxsus ruxsatnoma yoki vakolatli organlarni majburiy xabardor qilgan holda, ular bilan operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat berilgan turlari nazarda tutilishi mumkin. Tadbirkorlik subyektlarining subyektiv raqamli obyektlarga bo‘lgan huquqlar qayd etilgan axborot kommunikatsiya tizimining operatori yakuniy va majburiy bo‘lgan sud hujjati, hakamlilik sudi yoki xalqaro tijorat arbitraj sudining qarori, qonunchilikka muvofiq tashkil etilgan xalqaro tijorat arbitraj sudining qarori asosida manfaatdor shaxsning yoki vakolatli organning asoslantirilgan so‘rovnomasiga binoan raqamli obyektlar va ularning egalarining yozuvlariga o‘zgartirishlar kiritilishini ta‘minlashi shart.

Shuni ta‘kidlash kerakki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bitim tuzish tartibiga tomonlarning erk-xoxishlarini ifodalashning asosiy shakli sifatida ham ta‘sir qiladi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi loyihasining bitimning yozma shaklini nazarda tutuvchi 127-moddasiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda. Xususan, yuridik shaxs tomonidan tuzilgan bitim uning ta‘sis hujjatlari, ishonchnoma yoki qonun hujjatlari bilan bunga vakolat berilgan shaxslar tomonidan imzolanadi. Bitim mazmunini o‘zgarimas shaklda ifodalash imkonini beruvchi, axborotni moddiy tashuvchida saqlaydigan elektron yoki boshqa texnik vositalardan foydalangan holda tuzilgan bitim yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi. Agar o‘z erk-xoxishlarini bildirgan shaxsni ishonchli tarzda aniqlash imkonini beruvchi usul qo‘llanilsa, imzo qo‘yish talabi bajariladi. Qonun hujjatlarida va tomonlar o‘rtasidagi kelishuvda o‘z erk-xoxishlarini bildirgan shaxsni ishonchli aniqlashning maxsus usullari nazarda tutilishi mumkin. Bitim tuzishda qonun hujjatlarida yoki taraflar o‘rtasidagi kelishuvda nazarda tutilgan hollarda va tartibda imzoning nafaqat faksimil nusxalaridan, balki elektron raqamli imzodan yoki qo‘lda yozilgan imzoning boshqa ekvivalentidan ham foydalanishga yo‘l qo‘yiladi. Ikki tomonlama bitimlar nafaqat an‘anaviy vositalar, balki elektron hujjatlar va elektron xabarlar orqali ham tuzilishi mumkin. Agar qonun hujjatlarida yoki tomonlarning kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, shaxs

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘z xohish-irodasini bildirsa, agar bu ushbu harakatlarni amalga oshirish uchun yetarli deb topilsa yoki ushbu harakatlarni amalga oshirish tegishli faoliyat sohasida belgilangan ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo‘yiladigan boshqa talablarga muvofiq bo‘lsa va yozma shaklga tenglashtirilgan bo‘lsa, yozma shakldagi talablar bajarilgan deb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi loyihasining 583-moddasiga “Tovarlarni namuna bo‘yicha va elektron savdo maydonchasi orqali sotish” degan o‘zgartirish kiritilmoqda. Ushbu qoidaning yangiligi shundan iboratki, tomonlar tovarlarni namuna (tavsif, katalog, fotosuratlar), aloqa (televideniye, pochta, radio va boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari) bo‘yicha yoki iste‘molchining tovar yoki namunani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘zdan kechirishiga (elektron savdo maydonchasi orqali) to‘sqinlik qiladigan boshqa vositalar orqali sotish to‘g‘risida shartnoma tuzishi mumkin. Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, namuna bo‘yicha chakana savdo shartnomasi yoki elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan tovarlarni chakana sotish shartnomasi tovar bunday shartnomada ko‘rsatilgan manzilga yetkazib berilganda, agar bunday shartnomada yetkazib berish joyi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, fuqaro xaridorning yashash joyiga yoki yuridik shaxsning joylashgan joyiga tovar yetkazib berilganda bajarilgan hisoblanadi. Qayd etilganlarga asosan, raqamli tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda eng asosiy masalalardan biri axborot kommunikatsiya tizimidan foydalangan holda shartnoma tuzish hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlarining axborot kommunikatsiya tizimidagi shartnomalar raqamli platformalar tizimi qoidalariga muvofiq shartnoma tuzish to‘g‘risidagi fuqarolik qonunchiligiga va xalqaro shartnomalarga rioya qilgan holda, tegishli xizmatlarni ko‘rsatish shartnomasi (foydalanish shartnomasi) asosida axborot tizimida bitimlar va boshqa harakatlarni amalga oshirishga vakolatli shaxslar tomonidan tuziladi. Tadbirkorlik subyektlari axborot kommunikatsiya tizimida raqamli platformalar qoidalarida nazarda tutilgan shartnomalar tuzilishi mumkin. Darxaqiqat, qonun hujjatlarida tomonlar tomonidan imzolangan yagona hujjatni rasmiylashtirish yo‘li bilan shartnoma tuzish, bitimning yozma shakli va uni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning qat’iy talablari belgilangan shartnomalar, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, axborot kommunikatsiya tizimida tuzilishi mumkin emas. Raqamli platformaning operatori elektron shartnomalar shartlari bo‘yicha ma‘lumotlarning to‘g‘riligi va asoslilikini ta‘minlashi hamda texnik nosozliklarni bartaraf etish va oldini olish bo‘yicha zarur choralarini ko‘rishi shart.

Raqamli platforma – bu katta hajmdagi ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beruvchi, shuningdek, turli xizmatlar va ilovalardan foydalanishni ta‘minlaydigan dasturiy va texnik vositalarning integratsiyalashgan tizimi. Raqamli platforma biznes-jarayonlarni boshqarish, xizmatlar ko‘rsatish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqalar kabi turli maqsadlarni qo‘llab-quvvatlash uchun yaratilishi mumkin. Raqamli platformaning asosiy komponentlariga bulutli xizmatlar, ma‘lumotlar bazalari, ma‘lumotlarni saqlash va qayta ishlash tizimlari, sun‘iy intellekt, internet-ashyo va boshqa texnologiyalar kiradi. Raqamli platforma, shuningdek ilovalarni ishlab chiqish va integratsiyalash, ma‘lumotlarni boshqarish, xavfsizlik va boshqalar uchun turli xil vositalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Raqamli platformalar yangi iqtisodiy modellarni yaratish, biznes jarayonlari samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini beradi. Ular raqamli iqtisodiyot va innovation texnologiyalarni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi [10]. Raqamli platformaning operatori axborot tizimida tuzilgan shartnomalarni bir tomonlama tartibda o‘zgartirish yoki bekor qilishga haqli emas. Texnik nosozlik, uchinchi shaxslar tomonidan raqamli axborotga oid ma‘lumotlariga noqonuniy kirish yoki o‘zgartirishlar natijasida iste‘molchi yoki xaridorlarga taqdim etilgan shartlar bo‘yicha shartnomalar tuzish natijasida yetkazilgan zarar raqamli platformaning operatori tomonidan qoplanadi. Tadbirkorlik subyektlari raqamli platformada shartnoma tuzishda tomonlar amaldagi qonunchilikni tanlash huquqiga ega. Tadbirkorlik subyektlari raqamli platformadagi shartnoma axborot tizimi doirasida hujjatlar almashinuvi yoki smart-kontraktdan foydalangan holda tuzilishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda smart shartnomalarni tuzishga yo‘l qo‘yiladi. Smart shartnomaning bajarilishi bitimning oddiy yozma shakli va bitimning to‘g‘ri bajarilishi uchun qonuniy talablarga muvofiqligi hisoblanadi. Smart shartnomani tuzish tartibi,

asoslari, vazifalari, shartlari va uni bajarmaslik oqibatlarini, shuningdek, uning taraflarining huquq va majburiyatlari raqamli platformalari qoidalarida belgilanadi. Raqamli platformaning operatori tranzaksiyadan oldin foydalanuvchi smart shartnoma shartlari bilan tanishishini ta'minlashi shart. Raqamli platformada smart-shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari ro'yxati va hajmi noto'g'ri aks ettirilgan bo'lsa, raqamli platformaning operatori ular oldida aybidan qat'i nazar, javobgar bo'ladi. Smart kontraktdan foydalangan holda tranzaksiyani amalga oshirgan shaxs, aksi isbotlanmaguncha, uning shartlari, shu jumladan dastur kodida ko'rsatilgan shartlar to'g'risida tegishli ravishda xabardor qilingan deb hisoblanadi. Smart shartnoma shaxs axborot tizimi qoidalariga muvofiq axborot tizimidagi smart-kontraktdan foydalangan holda tranzaksiyani amalga oshirish erk-xohishini bildirgan paytdan boshlab kuchga kirgan hisoblanadi. Fuqarolik huquqiy majburiyatlarga oid qonunchilik, uning mohiyatiga zid bo'lmasa, smart shartnomaga nisbatan ham qo'llaniladi. Smart shartnoma uning tomonlari uchun huquq va majburiyatlarni vujudga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijari ko'rsatishicha, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining raqamli huquqlarini amalga oshirish o'zining kelajagiga ega. Ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llashning huquqiy asoslarini takomillashtirish istiqbolli vazifalardan hisoblanadi. Shu maqsadda tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirishni fuqarolik-huquqiy tartibga solish muammolarini maxsus monografik jihatidan ilmiy tadqiq etish maqsadga muvofiq. Fuqarolik, tadbirkorlik va shakllanayotgan kompleks huquq sohasi bo'lmish raqamli huquq doktrinasi nuqtai nazaridan tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirishni tartibga solishning nazariy va metodologik asoslarini tizimli o'rganish uchun tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirishning genezisi, ahamiyati va tamoyillari, tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning afzalliklari, belgi, xususiyatlari, tadbirkorlik faoliyati sohasida subyektiv fuqarolik raqamli huquqlarning amalga oshirilishi, himoya qilinishi va ularning sivilistik tavsifini ravamli huquq doktrinasi, tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirishning huquqiy asoslarini belgilovchi milliy qonunchilik normalarini amaliyotda qo'llashning va xorijiy davlatlar qonunchiligining rivojlanish tendensiyalarining fundamental asoslarini tahlil qilish lozim. Shuningdek, fuqarolik huquqi tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirish vositalarini, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziyalashda raqamli texnologiyalardan foydalanish, elektron shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidagi huquqiy maqomi, tadbirkorlik faoliyatida blokcheyn texnologiyalarni qo'llashni huquqiy ta'minlash hamda tadbirkorlik faoliyatida katta ma'lumotlarning huquqiy rejimini tavsiflab berish zaruriyati vujudga kelmoqda.

Zamonaviy sharoitlarda g'oyatda muhim masalalardan biri bo'lib tadbirkorlik faoliyatida raqamli obyektlarning fuqarolik-huquqiy rejimini tadqiq etish hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni tadbirkorlik faoliyatida qo'llash sohasining huquqiy xususiyatlari, tadbirkorlik faoliyatida tovarni realizatsiya qilish sohasida raqamli texnologiyalarning (digital platforms) huquqiy rejimi, tadbirkorlik faoliyati sohasida ishlarni bajarish sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning huquqiy rejimi, tadbirkorlik faoliyatida xizmatlar ko'rsatishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning huquqiy asoslari, tadbirkorlik faoliyatida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) onlayn reklama qilishning huquqiy asoslari xamda tadbirkorlik faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalardan foydalanishni huquqiy tartibga solish nazariy va amaliy muammolarini o'rganishni talab etmoqda. Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish va ularni fuqarolik muomalasida takomillashtirishning muammoli-maqsadli jihatlari, tadbirkorlik shartnomaviy munosabatlarida raqamli platformalar uchun huquqiy asoslar, tadbirkorlik faoliyatida elektron shartnoma tuzish tartibi va shakllari, tadbirkorlik shartnomalarida elektron raqamli imzolardan foydalanishning huquqiy asoslari, tadbirkorlik subyektlari ishtirokidagi shartnomaviy munosabatlarda elektron to'lovlardan foydalanishning huquqiy vositalari hamda tadbirkorlik faoliyati sohasidagi smart shartnomalarning huquqiy tabiatini yoritib berish zaruriyati vujudga kelmoqda.

Ma'lumki, dunyoning ko'plab mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya strategiyalari davlat darajasida qabul qilingan: ular raqamli iqtisodiyotni yaratish ustuvorligini e'lon qiladi, shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari o'z

ichiga qamrab oladi. Raqamli texnologiyalar fuqarolik muomalasining huquqiy tabiatini shu jumladan, tadbirkorlik faoliyatini raqamli transformatsiyalashuvi mohiyatini tubdan o'zgartirmoqda. Darxaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasiga ko'ra, davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Bugungi kunda axborot va "raqamli" texnologiyalar bilan bog'liq ijtimoiy hayotning turli sohalarida har xil huquqiy institutlarni tartibga soluvchi 10 dan ortiq qonunlar va ko'plab qonunosti hujjatlari mavjud. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son Farmoniga ko'ra tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasi ga muvofiq ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida bir qator tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Ushbu normativ-huquqiy xujjatda axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab qo'yilgan. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida tegishli sohalarda "Internet buyumlar", robototexnika, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va o'rganish bo'yicha laboratoriyalar, shuningdek, xorijiy korxonalarini ushbu sohaga jalb qilishni tashkil qilish; qog'oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanish bo'yicha davlat yagona talabini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash orqali ta'limda o'quv materiallarini raqamlashtirish belgilangan. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2023 yildagi PQ-306-son "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institusional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" [11] qarorida vazirlik va idoralarning tadbirkorlik yo'nalishidagi axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarining Biznes portalga integratsiya qilinishini ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi mavjud axborot tizimlari va ma'lumot bazalarini Biznes portalga birlashtirishni nazarda tutuvchi amaliy chora-tadbirlar rejasini bajarishga oid aniq vazifalarning ijrosi ro'yobga chiqayotganligi raqamli makonda biznes yuritishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishni zaruriyat qilib qo'ymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2023 yildagi PQ-162-son "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" [12] Qarorining ahamiyati beqiyosdir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlariga xalqaro platformalar orqali raqamli texnologiyalar sohasida xizmatlar ko'rsatish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [13] Qarori raqamli texnologiyalar sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlariga xalqaro xizmatlar bozorida ishtirok etish va hamkorlik bilan aloqalar o'rnatish uchun qulay sharoitlar yaratish, ularning eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida norma ijodkorlik faoliyati istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur Qarorga ko'ra, huquqiy eksperiment tariqasida raqamlashtirish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha eksport shartnomaviy hujjatlarni xalqaro platformalarda rasmiylashtirishga ruxsat beriladi. Huquqiy eksperiment doirasida Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT-park) rezidentlari tomonidan raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar (ular amalga oshirishi ruxsat etilgan faoliyat turlari ro'yxatiga muvofiq) eksporti bo'yicha xalqaro platformalarda elektron shaklda rasmiylashtirilgan qiymati 100 ming AQSH dollarigacha (yoki ushbu ekvivalentga teng miqdorgacha) bo'lgan shartnomalar (kelishuv, hisobvaraqa-faktura, invoys) elektron hujjat sifatida tan olinadi hamda ularning qog'oz shaklidagi nusxasi talab etilmaydi. Raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksporti bo'yicha shartnomalarni rasmiylashtirish ruxsat etiladigan xalqaro platformalar ro'yxati Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu o'rinda ta'kidlash kerakki, huquqiy eksperiment doirasida IT-park rezidentlari uchun YAIDXP orqali Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga tashqi savdo bitimlari bo'yicha tegishli ma'lumotlarni kiritib borish majburiy hisoblanadi. O'zbekiston startaplar va innovasion texnologiyalarning istiqbolli markazi sifatida obro'sini barqaror mustahkamlashda davom etmoqda va IT Park O'zbekistan qo'llab-quvvatlashi, hukumat tashabbuslari va yuqori malakali kadrlar tufayli mamlakat jahon sarmoyadorlari va texnologik kompaniyalarning e'tibori tobora ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024 yildagi PQ-357-son "Startap loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori barqaror startap loyihalar ekotizimini shakllantirish va venchur kapital bozorini kengaytirish orqali mamlakatimizga xorijiy venchur investisiyalarini jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratishda muhim o'rin tutadi. Shu bois uning ustivor huquqiy asoslarini shakllantirish borasida

normajodkorlik faoliyatini amlga oshirishni talab etmoqda. Bunday istiqbolli sohalarni huquqiy ta'minlash maqsadida startaplar va hunarmandchilik faoliyatini huquqiy tartibga solishning samaradorligini oshirishni talab etmoqda.

Xulosa va takliflar

Birinchidan, xorijiy davlatlarning eng yaxshi tajribalari tahlili asosida raqamlashtirish sharoitida mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini yangi tarixiy bosqichda yanada rivojlantirishni taqazo etmoqda. Tadbirkorlik faoliyatining raqamli transformatsiyalashuvi dialektik va tadrijiy rivojlanishini davlat va jamiyatning tadrijiy qonuniyatlariga asoslanib uni nazariy-metodologik asoslarini tizimli tadqiq etib o'rganish obyektiv zaruriyatdir. Raqamli zamon va makon qonuniyatlari asosida tadbirkorlik faoliyatidagi obyektiv reallik va istiqbolli mo'ljallar nuqtai nazardan unga ilmiy-huquqiy baho berib mavjud tizimli muammolarning yechimini topish mustaqil ijtimoiy va huquqiy taraqqiyotimiz garovidir. Xorijiy davlatlarning eng yaxshi tajribalarini inobatga olib startap (masalan, Ispaniyada 2022-yil 21-sentaabrda 28/2022-son "Startaplar ekotizimini rivojlantirish to'g'risidagi Qonun) va hunarmandchilikning (masalan, Tojikiston 2019-yil 20-iyundagi 1619-son "Hunarmandchilik to'g'risida"gi Qonun) ustivor huquqiy asoslarini ishlab chiqish zaruriyati vujudga kelmoqda. Bu esa o'z navbatida, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar bardavomligini ta'minlashda g'oyatda muhim huquqiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bu boradagi aniq maqsadli va istiqbolli yo'nalishlarning mazmuni shundan dalolat beryaptiki, ularni tizimli va jadal amalga oshirilishi raqamli tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchidan, xorijiy davlatlarning raqamli qonunchilikka oid eng yaxshi tajribasi tahlili va milliy Raqamli kodeks loyhasini ishlab chiqishdagi o'xshash qiyosiy mo'ljallarni o'rganish g'oyatda muhim ahamiyatga ega [14]. Xorijiy mamlakatlarning eng yaxshi tajribasini tahlil qilish ham ushbu sohadagi qonun hujjatlarini unifikatsiya qilish va nisbiy markazlashtirishga (huquq tizimi va davlat tizimiga qarab) umumiy intilish mavjudligini ko'rsatadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq munosabatlar turli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Uchinchidan, raqamli va kreativ iqtisodiyotga o'tish tadbirkorlik faoliyatini transformatsiyalashuvi sohasida normajodkorlik faoliyati bilan bog'liq muammolarni hal qilishni oldimizga qo'ymoqda. Fikrimizcha, bu boradagi maxsus kompleks normativ-huquqiy hujjat – "Raqamli tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi milliy raqamli va kreativ iqtisodiyotning platformalar orqali amalga oshirilishini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimiga asos bo'ladi. Eng muhimi, ushbu Qonunda raqamli tadbirkorlik tushunchasi va turlarini mustahkamlab qo'yishi kerak. Shuningdek, atamashunoslikka oid qonunchilik tushunchalarini aniqlash zarur; raqamli tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadlari, maqsadlari va asosiy tamoyillarini mustahkamlash lozim; O'zbekiston Respublikasida raqamli tadbirkorlikni amalga oshirishning davlat-huquqiy kafolatlarini belgilash maqsadga muvofiq. Raqamli tadbirkorlik bilan bevosita shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning raqamli texnologiyalarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga oid normalarni nazarda tutish lozim.

To'rtinchidan, tadbirkorlik faoliyatining turli xil tashkiliy- huquqiy shakllarning raqamli fuqarolik muomilasida samarali faoliyat yuritishi raqamli aktivlarni qo'llashga va raqamli biznesni huquqiy tartibga solishni rivojlantirishga bevosita bog'liqdir. Tadbirkorlik raqamli va kreativ iqtisodiy tizim rivojlanishining tan olingan vositasi, jamiyatda ijtimoiy hayotni barqarorlashtiruvchi, kambag'allikni qisqartirish va aholining moddiy farovonligini ta'minlashning hal qiluvchi drayveri desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Tadbirkorlikning bunyodkorlik roli jamiyat a'zolarining raqamli va kreativ iqtisodiy va huquqiy tafakkurini oshirishni, ularning doimiy yangilanadigan mobil ta'lim kontentlar asosida biznesni oqilona yuritish bo'yicha raqamli huquqiy va texnologik bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda, ayniqsa, biznes sohasida mutaxassis-huquqshunoslar korpusini zamonaviy talablar asosida malakali tayyorlashni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo‘llashni huquqiy tartibga solishning zamonaviy istiqbollari fundamental va amaliy tizimli tadqiq etish o‘z navbatida, sohada raqamli transformatsiyalashuvning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Karchija A.A. Grazhdansko-pravovaja model' regulirovanija cifrovih tehnologij / Diss... dokt. jurid. nauk. – M., 2019. S. 12-13 [Kartskhia, A.A. Civil Law Model of Digital Technology Regulation / Doctor of Laws Dissertation. – Moscow, 2019. pp. 12–13.]
2. Upravlenie biznesom v cifrovoj jekonomike: vyzovy i reshenija: monografija / pod red. I.A. Arenkova, T.A. Lezinoj, M.K. Cenzharik, E.G. Chernovoj. – SanktPeterburg: SPbGU, 2019. – 360 s [Business Management in the Digital Economy: Challenges and Solutions: Monograph / edited by I.A.Arenkov, T.A. Lezina, M.K. Tsenzharik, E.G. Chernova. – Saint Petersburg: Saint Petersburg State University, 2019. – 360 p.]
3. Gromov G.R. Ocherki informacionnoj tehnologii. – M.: InfoArg, 1993. – S. 14. [Gromov, G.R. Essays on Information Technology. – Moscow: InfoArg, 1993. – p. 14.]
4. Rassolov I.M. Pravo i Internet. Teorija kiberneticheskogo prava: monografija / I.M. Rassolov. 3-e izd., dop. M.: Norma: INFRA-M, 2021. 304 s [Rassolov, I.M. Law and the Internet. Theory of Cybernetic Law: Monograph / I.M. Rassolov. 3rd ed., expanded. – Moscow: Norma: INFRA-M, 2021. – 304 p.]
5. Razvitie predprinimatel'stva: koncepcii, cifrovyje tehnologii, jeffektivnaja sistema: monografija / pod red. M.A. Jeskindarova. 2-e izd. M.: Dashkov i K, 2020. 605 s. [Entrepreneurship Development: Concepts, Digital Technologies, Efficient System: Monograph / edited by M.A. Eskindarov. 2nd ed. – Moscow: Dashkov & Co, 2020. – 605 p.]
6. Cifrovij biznes: uchebnik / pod nauch. red. O.V. Kitovoj. – Moskva: INFRA-M, 2021. – 418 s. [Digital Business: Textbook / scientific ed. by O.V. Kitova. – Moscow: INFRA-M, 2021. – 418 p.]
7. Nevzorov, I.V. Problemy regulirovanija predprinimatel'skoj dejatel'nosti, osushhestvljaemoj s ispol'zovaniem Internet: avtoref. dis. ... kand. jurid. nauk: 12.00.03 / Nevzorov Igor' Valer'evich; [Mesto zashhity: S.-Peterb. gos. un-t]. – SPb., 2010. – 26 s. [Nevzorov, I.V. Problems of Regulating Entrepreneurial Activity Conducted via the Internet: Abstract of the Dissertation for the Degree of Candidate of Legal Sciences: 12.00.03 / Igor Valeryevich Nevzorov; [Place of defense: St. Petersburg State University]. – St. Petersburg, 2010. – 26 p.]
8. Glotov V.S., Shalaton D.V. Internet-tehnologii i jelektronnaja trgovlja: Jekonomika, pravo, programmnoe obespechenie. – 2-e izd. – M., 2007. – S. 12-45 [Glotov, V.S., & Shalaton, D.V. Internet Technologies and E-Commerce: Economics, Law, Software. – 2nd ed. – Moscow, 2007. – pp. 12–45.]
9. Karchija A.A. Grazhdansko-pravovaja model' regulirovanija cifrovih tehnologij / Diss... dokt. jurid. nauk. – M., 2019. S. 12-13 [Kartskhia, A.A. Civil Law Model of Digital Technology Regulation / Doctor of Laws Dissertation. – Moscow, 2019. – pp. 12–13.]
10. Vatolina O.V., Nicheporuk A.V. Sushhnost' i ponjatje cifrovih platform // Vestnik TOGU 2025. №1 (76)-85 s. [Vatolina, O.V., & Nicheporuk, A.V. The Essence and Concept of Digital Platforms // Bulletin of TOGU, 2025, No. 1 (76), 85 p.]
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2023 yildagi PQ-306-son “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida ” qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.09.2023 y., 07/23/306/0706-son; 16.03.2024 y., 07/24/130/0218-son; 03.04.2024 y., 07/24/149/0262-son; 03.04.2024 y., 07/24/146/0266-son
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2023 yildagi PQ-162-son “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.05.2023 y., 07/23/162/0295-son; 03.08.2023 y., 07/23/257/0552-son; 08.09.2023 y., 07/23/296/0687-son; 01.11.2023 y., 07/23/353/0819-son; 11.11.2023 y., 06/23/193/0844-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/0984-son

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlariga xalqaro platformalar orqali raqamli texnologiyalar sohasida xizmatlar ko‘rsatish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.03.2024 y., 07/24/129/0217-son.

14. Obzor mirovogo opyta v sfere regulirovaniya global'nyh cifrovyyh platform v nacional'nyh yurisdikciyah [Review of global experience in regulating global digital platforms within national jurisdictions.] // URL: <https://cgirc.ru/groups/analiticheskie-issledovaniya/obzor-mirovogo-opyta-v-sfere-regulirovaniya-globalnykh-tsifrovyykh-platform-v-natsionalnykh-yurisdikts/>

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahafaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.